

SMTI eksperti Pekinda bo'lib o'tgan seminarda islohotlar va yashil transformatsiya bo'yicha O'zbekiston tajribasini taqdim etdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) bosh ilmiy xodimi Madina Aripova yaqinda Pekinda Xitoy Zamonaviy Xalqaro Munosabatlar Akademiyasi tashabbusi bilan bo'lib o'tgan "Yangi davrda davlat boshqaruvi" xalqaro seminarida ishtirok etdi.

Davlat boshqaruvi sohasida tajriba almashishga bag'ishlangan seminar sessiyalaridan birida so'zga chiqqan M.Aripova O'zbekistondagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va mamlakatning barqaror rivojlanish mintaqaviy kun tartibidagi roli ortib borayotganini ta'kidladi.



Ekspert zamonaviy kam uglerodli iqtisodiyotni shakllantirish, energetika xavfsizligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonning qarashlarini taqdim etdi. U Markaziy Osiyo ekologik transformatsiya uchun katta imkoniyatlarga ega ekani, O'zbekiston esa bu borada amaliy qadamlar tashlayotganini ta'kidladi.

Toshkent "yashil" energetikani iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishi sifatida ko'rayotgani ta'kidlandi. So'nggi yillarda respublikada qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi, bu esa ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 23 foizini shu turdagi energiya manbalari bilan ta'minlash imkonini berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy quvvati 4,7 GVt bo'lgan 13 ta quyosh va 5 ta shamol elektr stansiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. 2030-yilga borib O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 10 GVtga yetkazishni va yashil energiya ulushini 54 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda. SMTI ekspertining so'zlariga ko'ra, ushbu maqsadlarga erishish uchun respublika xalqaro investitsiyalar va texnologiyalarni, jumladan, Xitoy energetika kompaniyalari va boshqa xorijiy investorlar bilan hamkorlikni faol jalb qilmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik haqida so'z yuritarkan, M.Aripova O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik va Xitoy bilan sheriklikni mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim elementi sifatida ko'rishini ta'kidladi. U "yashil" ishlab chiqarish sohasidagi qo'shma tashabbuslar, jumladan, O'zbekistonda elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha "BYD Uzbekistan Factory" zavodining ishga tushirilishi mintaqaviy sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va yangi texnologik zanjirlarni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Ekspert, shuningdek, kadrlar tayyorlash va ilmiy almashinuvning muhimligiga e'tibor qaratib, "Green University" negizida Markaziy Osiyo ekologiya va atrof-muhit tadqiqot markazini tashkil etish muhimligini ta'kidladi, bu qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va barqaror rivojlanish sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun muhim platformaga aylanadi.

SMTI vakili mintaqa mamlakatlarining global tahdidlarga, jumladan, iqlim o'zgarishi, kibertahdidlar va

axborot xatarlariga jamoaviy chidamliligini mustahkamlash zarurligiga alohida e'tibor qaratdi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat sektorini modernizatsiya qilish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro muloqotni rivojlantirish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Seminar ishtirokchilari O'zbekistonning "yashil" transformatsiya, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga yondashuvini yuqori baholadilar. Ko'plab ekspertlarning fikricha, O'zbekistonning tajribasi va tashabbuslari, ayniqsa, global xatarlar va barqaror rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish zarurati kuchayib borayotgan bir sharoitda umummintaqaviy kun tartibiga muhim hissa qo'shmoqda.

*Xitoy Zamonaviy Xalqaro Munosabatlar Akademiyasi XXRning yetakchi tadqiqot markazi hisoblanadi. Institut 1980-yilda tashkil etilgan bo'lib, unga akademiya maqomi 2003-yilda berilgan. Akademiya tuzilmasida global va mintaqaviy muammolarni o'rganish, shuningdek, dunyo mamlakatlari va mintaqalarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan 16 ta ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat yuritadi. 2017-yilda SMTI va Xitoy Zamonaviy Xalqaro Munosabatlar Akademiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolangan.*